

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI



“MUHANDISLIK ISHLARINI YURITISH”

FANINING O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi:** 700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
- Ta'lim sohasi:** 720 000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
- Ta'lim yo'nalishi:** 60720700 – Yengil sanoat muhandisligi (trikotaj texnologiyasi faoliyat turi bo'yicha)

Toshkent 2025

| Fan/modul kodi <i>MIYU2405</i> | | Semestr 4 | ECTS-kreditlar 5 | |
|-----------------------------------|--|--|---------------------------|------------------------------|
| Fan/modul turi tanlov | | Ta'lim tili O'zbek, Rus | | Haftadagi dars soatlari 4 |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Muhandislik ishlarini yuritish | 60 | 90 | 150 |
| 2. | <p>I.Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - – «Muhandislik ishlarini yuritish» fanining o'qilishidan maqsad; – trikotaj maxsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarini mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rniga katta e'tibor bergan holda talabalarga ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil kilish va boshqarishda, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ilgor muhandislik ishlarini yuritish bilimlarini o'rgatishdir.</p> <p>Muhandislik ishlarini yuritish talabalarga umummuhandislik, umum kasbiy va ixtisoslik fanlaridan olgan nazariy bilimlarini mutaxassis sifatida ishlab chiqarish korxonalarini, muassasa, ta'lim va sifat tizimi sohasida ilmiy tadqiqot, loyiha konstruktorkir byurolarida amalda tadbiiq etish shart-sharoitlari, tashkiliy ishlar, ish yuritish tartibi, xizmat va meyoriiy hujjatlarni yuritish bo'yicha tajriba va malaka ko'nikmalarini hosil qilishni o'rgatadi.</p> <p>Fanni vazifasi- - «Muhandislik ishlarini yuritish» fanining o'ziga xos tomonlari keltirilib, ularda uchrab turadigan kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llarini amalga oshirishni o'rganish;</p> <p>talaba ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, boshqarish uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat amaliyotlarini o'rgatish hamda real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari):</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>I-mavzu. Kirish. Fanning maqsadi va vazifasi. Muhandislik faoliyatida kasbiy mahoratni shakillantirish.</p> <p>«Muhandislik ishlarini yuritish» fani, trikotaj maxsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlarida ishlovchi mutaxassislarning kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar va ularning injenerlik ish yuritish uslublarini o'rgatadi. Bu kurs bakalavriat talabalariga to'qimachilik sanoati trikotaj maxsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarida ishlash uchun qanday kasbiy mahoratga ega bo'lishliklari, korxonada muhandislik ishlarini yuritishni nimadan va qanday amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bilimlarga asoslanib o'rgatadi.Yosh</p> | | | |

mutaxassislarni trikotaj korxonalariga ishga qabul qilish talablari. Yosh mutaxassislarni trikotaj korxonalarida stajirovkasi (kasb mahoratini o'rtirish) va ularni lavozimlarga tayinlash.

2-mavzu. Ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini tashkil etish.

Ishlab chiqarish rejasi va ko'rsatkichlar tizimi. Korxonalarining ishlab chiqarish quvvati. Ishlab chiqarish rejasini resurslar bilan ta'minlanishi.

3-mavzu. To'qimachilik korxonalarini boshqarish.

To'qimachilik korxonalarining turlari. To'qimachilik korxonalarini ma'muriy boshqarish. To'qimachilik korxonalarini texnik boshqarish.

4-mavzu. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlari.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini shakllantirishga mashina tizimining tuzilishi katta ta'sir ko'rsatadi: uning miqdoriy tarkibi, sifat xususiyatlari, makonda joylashishini tashkil etish va vaqt bo'yicha ishlashi.

5-mavzu. Ishlab chiqarishni ma'muriy-texnik boshqarish.

To'qimachilik korxonasining ishlashi uchun mutaxassis kerak: menejerlar, buxgalteriya hisobi, xarid bo'yicha menejerlar, savdo menejerlari, ombor xodimlari, ekspeditorlar, dizaynerlar, marketologlar, tikuvchilar, kesuvchilar. Biznesning jozibadorligini oshiradigan omil operatsion faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshiradigan menejerning mavjudligi bo'lishi mumkin.

6-mavzu. Eksperimental boshlig'i va trikotaj sexi boshlig'ining ish yuritishi.

Eksperimental boshlig'i va trikotaj sexi boshlig'ining ish yuritishi xizmatini tashkil etish. Eksperimental boshlig'i va trikotaj sexi boshlig'i xizmati amalga oshiradigan ishlar.

7-mavzu. Trikotaj sexi texnologiyasi huquq va majburiyatlari. Ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishning asosiy maqsadlarini belgilab olish.

Trikotaj sexi texnologiyasi xizmatini tashkil etish. Trikotaj sexi texnologiyasi va xizmati amalga oshiradigan ishlar.

8-mavzu. To'qimachilik korxonalarida bosh muhandis xizmatini tashkil etish.

Bosh injener xizmatini tashkil etish. Bosh injener xizmati amalga oshiradigan ishlar.

9-mavzu. To'qimachilik korxonalarida sex boshlig'i ishini tashkil etish.

Sex boshligi lavozimiga qo'yilgan talablar. Sex boshlig'ining lavozim vazifalari. Sex boshlig'ining ish grafigi.

10-mavzu. Smena masterining ishlab chiqarishda Muhandislik ishlarini yuritish va uning asosiy hujjatlari.

Smena masterining ishlab chiqarishda tutgan o'rni. Smena masteri faoliyatini tashkil etish. Smena masterining ish joyi. Smena masterining asosiy hujjatlari. Ish vaqtini hisoblash tabeli. Mehnat muhofazasi kitobi. Ichki nazorat kitobi. Sexlararo nazorat kitobi. Smenani qabul qilish va topshirish kitobi. Top-

shiriqlarini bajara olmayotganlar bilan ishlash kitobi. Profilaktik ta'mirlashlarni qayd etish kitobi. Ishchi yig'ilishlarning bayonnomalar kitobi. Fuqaro muhofazasi kitobi.

11-mavzu. Smena masterining ish yuritish hujjatlari.

Smena masterining ish hujjatlari. Ish hujjatlarini rasmiylashtirish. Inventarlar va ish quollarini ta'mirlash buyurtmasi. Texnologik mashinalarda sodir bo'lgan texnik to'xtashlar dalolatnomasi. Texnologik uskunalarning ta'mirlashdan oldingi va keyingi nosozliklar qaydnomasi.

12-mavzu. Smena masterining texnik kengashdagi hisobot.

Ishchilarning mehnat ta'tili grafisini tuzish va arizalarni rasmiylashtirish. Ishchilarning o'z hisobidan ta'til arizasini rasmiylashtirish.

13-mavzu. Smena masterining texnik barqarorlikni va intizomni ta'minlash bo'yicha olib borilgan ishlari.

Ishlab chiqarish rejasini bajarish bo'yicha olib borilgan ishlari. Sifatni ta'minlash bo'yicha olib borilgan ishlari. Xom ashyodan foydalanish bo'yicha olib borilgan ishlari. Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha olib borilgan ishlari.

14-mavzu. Smena masterining ishchilar maxoratini oshirish bo'yicha olib borilgan ishlari. Trikotaj ishlab chiqarishda texnologik reglamentlar va hisobga olish.

Ish usullarini bajarilishi bo'yicha olib borilgan ishlari. Ish quollari, inventarlar va ishlab chiqarish buyumlari bo'yicha olib borilgan ishlar. Ishlab chiqarish intizomi bo'yicha ishlari. Texnologiya intizomi bo'yicha ishlari. Mehnat intizomi bo'yicha ishlari.

15-mavzu. Trikotaj buyumlarini loyihalashda muhandislik hujjatlari. To'qimachilik korxonalarida mehnat intizomi

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Trikotaj korxonalarini bilan tanishish.
2. Xomashyo ombori ishni tashkil etish.
3. Sifat laboratoriyasi ishni tashkil etish.
4. To'quv sehi ishni tashkil etish.
5. Pardoqlash sehi ishni tashkil etish.
6. Tikuv sehi ishni tashkil etish.
7. Tayyor mahsulot ombori ishni tashkil etish.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha o'lgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali

qurollar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilayotgan mavzulari:

1. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi to'qimachilik korxonalarida injenerlik ishlarini yuritilishi.
2. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi to'qimachilik korxonalaridagi mutaxassislarning lavozim vazifalari.
3. Xususiy, xorijiy va qo'shma korxonalarida mutaxassislarga qo'yilgan talablar.
4. To'qimachilik korxonalarida ishni tashkil etish.
5. To'qimachilik korxonalarida texnik va ma'muriy boshqaruvni tashkil etish.
6. To'qimachilik korxonalarida ta'minlash bo'limini tashkil etish.
7. To'qimachilik korxonalarida marketing bo'limini tashkil etish.
8. To'qimachilik korxonalarida xodimlar bo'limini tashkil etish.
9. To'qimachilik korxonalarida raxbariyat boshqaruvini o'rganish.
10. To'qimachilik korxonalarida sifat bo'limini o'rganish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.

V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

"Muhandislik ishlarini yuritish" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- to'qimachilik korxonasi va uning bo'linmalarini ishini tashkil etish va boshqarish;
 - sexda bo'lim texnologiy bo'lib ishlash, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
 - ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish *haqida tasavvurga ega bo'lish;*
 - ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
 - ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishni *bilishi va ulardan foydalana olishi;*
 - tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ularni amalga oshirish, muammolarni ijobiy hal etish uchun umum insoniy qadryatlarni va tashkilotchilik qobiliyatlarini chuqur egallash;
 - ishlab chiqarish korxonasida ish yuritish xujjatlarini yurita olish *ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.*
 - to'qimachilik korxonalarida uskunalarni ishlata olish;
 - tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- korxonada ishchi xodimlarni ishlarini boshqarish va tashkilashtirish *malakasiga ega bo'lishi kerak.*

| | |
|----|--|
| 4. | <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari; • interfoal keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • jamoa bo'lib ishlash; • vedio materiyallar tayyorlash; • individual ishlash. |
| 5. | <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.</p> |
| 6. | <p>Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Muqimov M.M., Ikramov SH.R. Trikotaj to'qish texnologiyasi. Toshkent, 2007. 2. Xanxadjaeva N.R. "Naqsh hosil qilish nazariy asoslari" TTYESI bosmaxonasi, Toshkent. 2022 y. 3. M.M.Mukimov, Q.M.Xoliqov, K.Z.Yunusov «Xalqa hosil qilish jarayoni». Namangan, 2020 y. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil. 5. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 okyabrdagi PF-5847 sonli Farmoni. 6. M.M.Muqimov, B.F.Mirusmanov, N. R. Xanxadjaeva To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari. O'quv qo'llanma Toshkent, 2019. 7. N. M. Musayev, G. X. Gulyaeva, M. M. Musayeva, K. Z. Yunusov, M. M. Mukimov Trikotaj mashinalari ish jarayoni taxlili. O'quv qo'llanma. "BOOKMANY PRINT", Toshkent, 2023. |

| | |
|----|--|
| | <p style="text-align: center;">Axborat manbaalari;</p> <p>8. http://www.lex.uz -O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>9. http://www.legprom.uz- "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi rasmiy sayti.</p> <p>10. http://stoll.com/stoll-startseite-en</p> <p>11. http://www.shimaseiki.com/product/knit/</p> <p>12. https://www.youtube.com/watch?v=cch5MulQKHk</p> <p>13. http://standart.gov.uz</p> <p>14. www.ziyonet.uz</p> <p>15. https://studiekiezer.ugent.be/2025/international-master-of-science-in-textile-engineering-en/programma</p> |
| 7. | Fanning o'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025 yil "27" 08 dagi "1"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | <p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Musayeva M.M. - TTYSI, «To'qimachilik matolari texnologiyasi» kafedrasida dotsenti, PhD</p> |
| 9. | <p>Taqrizchilar:</p> <p>Yunusova Z.G. - "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi, bosh mutaxassisi</p> <p>Rajapov O.O - TTYSI, «Ipak va yigirish texnologiyasi» kafedrasida dotsenti, PhD</p> |

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

| № | OTM nomi | QS | THE | Havolalar | Silla- busdagi mavzu nomi | Chet el uni- versiteti Sil- la- buslaridagi mavzular |
|----------|----------------------|-----------|------------|---|--|---|
| 1 | Gent Universiteti | 168 | 112 | https://studiekeizer.ugent.be/2025/international-master-of-science-in-textile-engineering-en/programma | 14-15 mavzula r to'liq olingan | Ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini tashkil etish |